

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA LADUN ILMINING IFODALANISHI

Umurova Nigina Raximovna
BuxDU doktranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq tasavvuf adabiyotining yorqin namoyondasi Ahmad Yassaviyning ijodida ilmi ladun, g'ayb ilmi bilan bog'liq jihatlar tahlil qilingan. Hikmatlarda ilohiy ma'rifat, qalb pokizaligi va Xudo bilan yaqinlik orqali hosil bo'luvchi ilmning mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada Ahmad Yassaviy she'riyatida turkiy adabiyotda ilk marta qo'llanilgan tasavvuf tushunchalaridan ladun ilmi bilan bog'liq hikmatlar tahlilga tortilgan. Tadqiqotda shoir tafakkurida ilohiy sirlarning ochilishi va g'ayb ilmi inson komilligiga, so'fiy ma'naviy olamining yuksalishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, hikmat, ladun ilmi, g'ayb ilmi, oyat, hadis, so'fiy, komillik.

Introduction

Kirish qism. Ilmi ladun tushunchasi Islomda va tasavvufda eng muhim bo'lgan ilmlardan biri sanaladi. Har qanday faqih, mutasavvif olim yoki so'fiy ilmi ladun xususida chuqur tasavvurga egadir. Ilmi ladun mantiq, tasavvur chegaralaridan tashqaridagi g'ayritabiiy ammo shu bilan birga nihoyatda nozik va tabiiy ilm bo'lib, tasavvufda Alloh tomonidan bevosita ato etilgan ilm hisoblanadi. Ushbu ilm insonning tajribasi yoki ilm-fan orqali o'rganilmay, balki Allohning g'ayrishuuriy tarzidagi qalbgga tushiriluvchi ilhom va ne'matdir. Ilohiy ilhom orqali erishiladigan ma'lum bir maqomdagi bilim sanaladi.

Asosiy qism. Ushbu ilm haqida yanada batafsil va aniq izohlarni manbalarda ko'rib chiqiladigan bo'lsa, avvalo, Qur'oni Karimning Kahf surasiga murojaat etiladi. Kahf so'zi "g'or" ma'nosini anglatadi. Ushbu surada Allohga iymon keltirgan yosh yigitlar va ularning sinovlari hamda mo'jizalar, Odam va Iblis, Hizr va Muso alayhissalomlar bilan bog'liq voqealar bayon etilib, ilohiy ilm xususida, ilmi ladunga asos bo'ladigan haqiqatlarga guvoh bo'lamiz. Mazkur suraning 65-oyatida Alloh Taolo marhamat qiladi: "Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilar. Unga o'z dargohimizdan rahmat va O'z tarafimizdan ilm o'rgatgan edik". Oyatda keltirilgan "min ladunnaa ilman" ifodasi bevosita ilmi ladun atamasiga asos bo'lgan. Keyingi oyatlarda ushbu limning mohiyati yanada batafsil ochiqilanadi: "Muso unga: Senga o'rgatilgan rushddan menga o'rgatmog'ing uchun senga ergashsam maylimi, dedi. (Kahf, 66) "Sen men bilan bo'lishga sabr qila olmassan" (Kahf, 67) "O'zing xabarini ihota qilmagan narsaga qanday sabr qilasan, dedi. (Kahf 68) Ushbu oyatlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri hilol" kitoblarida quyidagicha izohlanadi: "U yerda Muso alayhissalom o'zlaridan ilmiroq, solih bandani ko'rdilar. Bu bandaga Alloh Taolo o'z dargohidan rahmat ato etgan hamda unga o'z tarafidan ilm o'rgatgan edi. Bu ilm Muso alayhissalom biladigan ilmdan boshqa ilm edi. Shu bois, Muso alayhissalom o'sha solih bandadan ilm o'rganish uchun uni izlab yo'lga chiqqan edilar". Ko'rinib turganidek, ladun ilmi bu g'ayb ilmi, u faqatgina Allohning o'zi istagan xos bandalarigagina ato etadigan xos ilmdir. 68-oyatning tafsirida

mohiyat yanada oydinlashadi: “Solih banda bu gapi bilan Muso alayhissalomga o’zidagi ilm oddiy ilm emas, laduniy (ya’ni sirtidan boshqa ko’ringan narsalarning ichidagi, ortidagi sirlarini bilish ilmi) ekanini, bunday sirli ilmlarga payg’ambar sabr qilishi qiyinligini aytdi”. Guvohi bo’lganimizdek, ushbu ilm nafaqat ilohiy, balki mohiyatan juda murakkab va zalvorli ekanligi, uning o’ziga xos mas’uliyati borligi namoyon bo’ladi. Yuqorida zikr etilgan ma’lumotlardan shuni anglaymizki, ilmi ladun g’ayb ilmi bo’lib, bunda voqea-hodisalarning asl mohiyati, hikmati bilan bog’liq jihatlar, aksariyat insonlarga noma’lum yoki bir salbiy ko’ringan ishlar ortida mislsiz yaxshilik borligi aks etadi. Bu hikmat, sir faqat Allohga va uning ayrim solih bandalarigagina ayon bo’ladi. Laduniy ilmida narsalar va ishlarning ayni oqibatini, asl mohiyatini bilish orqali hikmat anglanadi.

Hadislarda ham ilmi ladun bilan bog’liq rivoyatlar keltirilgan bo’lib, bu aynan Qur’onda zikr etilgan Kahf surasidagi Muso alayhissalom va Hizr alayhissalom bilan bo’lgan voqeaning keng sharhi sifatida Imom Buxoriyning “Kitob ut-tafsir”larida keltirilgan.

Ilmi ladun istilohining bir qancha arab lug’atlarida ham ma’nosi aynan “yonida, yaqinida” degan ma’noni anglatib, Alloh huzuridan ilhom orqali berilgan ilohiy ilm ekanligi ta’kidlangan. Imom Faxriddin ar-Roziyning “Tafsir al-Kabir”, Jaloliddin Suyutiyning “Tafsir al-jalolayn” asarlarida ham ayni ma’nolarda oyat tafsirida botin ilmi sifatida izohlangan.

Tasavvuf olamining zabardast vakili bo’lmish Imom G’azzoliy o’zining “Ihyo ulum ad-din” asarida ilmlarni 2 turga tasniflaydi: Naql – zohiriy ilmlar – fiqh, lug’at, tafsir; Kashf – botiniy ilm – ilmi ladun. So’ng u ilmi ladunga shunday ta’rif beradi: “Allohning valiy bandalari bor, ular ilmni ustozdan emas, balki Robbilaridan oladilar.”.

Islom tarixi va yuqorida nomlari zikr etilgan manbalarda saodat asrining sharif sahobalari va salafi solihlardan ham ushbu ilm sohiblari xususida va u bilan bog’liq g’oyat ibratli hodisalar keltirilgan bo’lib, haqiqatan ladun ilmi faqat Allohning yaqin, solih bandalariga tuhfa etgan xos ilmligini anglaymiz. Xususan, Imom G’azzoliyning “Ihyo ulum ad-din” asarida botiniy ilmlar xususidagi bobida sahoba Umar roziyallohu anhuning xutba paytida “Ey qo’shin, toqqa, toqqa”, -deya aytgan

so’zlarining toqqa tegishli qo’mondonga yetib borgani haqidagi hadis misol sifatida keltirilib, dushmanning yaqinlashganini u kishiga kashf bo’lib qolgan paytda qo’shinni ogohlantirganlari dalil qilingan. Bunday misollar asarda ko’plab keltirilgan bo’lib, har birida bu ilohiy ilmning o’ziga xosligi ochiqqlanadi.

Abdulqahhor Shoshiyning “Avliyolar kitobi”da so’fiylar botiniy ilmlarni ma’rifat, irfon, ilmi laduniy, ilmi vahbiy, ilmi asror kabi nomlar bilan atashlarini ta’kidlaydi. [1;33-bet] Botiniy ilm yo vahiy yo ilhom orqali eaganadi. Vahiy vositasida payg’ambarlar erishadilar. Avliyolar esa ilhom orqali qo’lga kiritadilar.

Ilmi ladun g’ayb ilmiga ma’no jihatdan yaqin bo’lsa-da, g’ayb ilmi mohiyatan keng tushuncha sanaladi. G’ayb ilmi biz ko’rmasakda, haq bo’lgan, ishonadigan barcha hodisalarning mavjudligi bilan bog’liqdir. Masalan, jannat va jahannam, farishtalar va jinlar ayni g’ayb olamiga dahldor tushunchalardir. Bu ilm faqat Allohning o’ziga xos bo’lib, inson ongidan tashqaridagi bir ilmdir. G’ayb ilmi kelajak, ruhlar olami va ko’z ila ko’rib bo’lmaydigan tushunchalar bo’lib, ilmi ladun amaliy, ma’naviy yoki maxsus vazifalarni ado etish uchun berilgan bilimdir. Ushbu tushunchalar nafaqat diniy ahamiyat kasb etadi, balki o’zbek

adabiyotiga ham tasavvuf adabiyoti orqali go'zal badiiy vositalar sifatida kirib kelgan va axloqiy, irfoniy, ma'rifiy g'oyalarni aks ettirish hamda g'oyalarni tashish uchun ijodkorlar tomonidan keng qo'llanilgan.

Muhokamalar. Xususan, XI asr turkiy tasavvuf adabiyotida beqiyos o'rin egallagan Xoja Ahmad Yassaviy o'zining buyuk adabiy merosi "Hikmatlar" asarida ko'pgina tasavvuf bilan bog'liq tushunchalarni she'riyatga olib kirgan ilk mutasavvif shoirlardan biridir. Aynan, ladun ilmiifodalangan ayrim hikmatlarni keltirib o'tamiz:

Xush g'oyibdin ovoz keldi qulog'imga
 "Zikr ayt" dedi, zikrin aytib yurdum mano
 Jumla buzurg yig'ilib manga in'om berdi
 Ul sababdin Haqqa sig'inib keldim mano. [32-bet]

Dastlabki misralarda ta'kidlanganidek, g'oyibdan ya'ni Haq Taolodan ilohiy bir buyruq – xush ovoz singari zikr aytish ilhom qilindi, jamiki mo'minlar uchun eng buyuk ish bu zikr aytmoqlik, Allohni eslash ekanligi Qur'oni Karimda ham aytilgan, zikr qalbni poklovchi, ruhiy kamolot sari yetaklovchi eng muhim vazifadir, Haqning muhabbatiga sazovor etguvchi bu da'vat so'fiy qalbiga g'aybdan buyruq qilingani va ushbu vazifani sharaf deb qabul qilib, muallifning "zikrin aytib yurdim mano" deya Haq da'vatini kamoliga yetkazganligi hikmatda o'z aksini topgan hamda xush g'oyibdan ovoz keldi qulog'imga misrasi ilohiy ilhomning aksi o'laroq ladun ilmiga xos hodisadir. Ushbu hodisaning hikmatda badiiy ifodalanishi esa Ahmad Yassaviyning nafaqat so'fiy, avliyo, balki buyuk shoir sifatida ham beqiyos qirralarini namoyon etmoqda. Keyingi misrada "jumla buzurg" ya'ni eranlar, pirlar, avliyolar, oriflarning ruhi yig'ilib in'om berishi tasvirlangan bo'lib, bu hodisa ruhiy maqomga yetish, ulardan quvvat olish, irshod yoki ilohiy mukofot nuri bilan fayzlanish deb talqin qilinadi. Yakuniy misrada esa so'fiy shoir ilohiy buyruqqa quloq tutib, zikr aytib – poklanib, oriflardan irfoniy quvvat olib, Haqqa sig'inib keldim,- deya hikmatning maqsadini namoyon etadi va alal oqibat zikr hamda pirlar fayzi tufayli ma'rifatga, Haqni tanish va sig'inish - ubudiyat darajasiga yetganini anglatadi. Hikmatning har misrasida yassaviyona irfoniy ma'no mavjud bo'lib, so'fiy shoir tasavvufiy adabiyotning go'zal namunasi yaratgan.

Navbatdagi Hikmatda ham ladun ilmiga xos ayrim jihatlar go'zal badiiy ifodalangan bo'lib, ilohiy-irfoniy zavqni tuyamiz.

O'ttuz ikki yoshda yetti Haqdin farmon
 "Bandalikka qabul qildim, qilma armon
 Jon berarda bergum sango nuri imon"
 G'arib jonim shodmon bo'lub kuldi, do'stlar. [34-b]

Ko'rinib turganidek, misrada keltirilgan "yetti Haqdan farmon" jumlasini Allohning ilohiy ishorasini, uning so'fiy ruhiga yo'llagan xitobini anglatadi. Keyingi misrada farmonning ne qadar oliy, buyuk ekanligini namoyon etmoqdaki, boisi inson uchun ulkan baxt, sharaf bu Allohning rizoligi, aynan mana shu maqomga so'fiyning nasibador bo'lganligi ayon bo'ladi va Haq Taoloning bandalikka qabul qilganligi ta'kidlanadi. Allohning do'stlariga so'nggi lahzalarda yordam yetishi, jon berarda iymon nuri berilishi bu har bir so'fiyning oliy muddaosidir, o'lim bu yakun emas, balki oshiqning Haqqa yetish yo'lidagi bir ibtido, ruhning abadiyat sari parvozi ekanligini Hikmatda anglashimiz mumkin. So'nggi misradagi "g'arib jon"

ifodasi Alloh oldidagi ojizlik va muhtojlikni anglatib, haqiqiy bandalik mohiyatini namoyon etadi va haqqa talpingan ruh uning rizoligini topganida “shodmon bo’lib kulishi” ya’ni, ruhiy kamolotga yetganini anglatadi. Bu “fano filloh”, o’z menini yo’qotib, abadiyatga birlashishdir. Quyidagi Hikmatda ham shoirning hikmat aytish va o’zining ezgu g’oyalarni yoyish uchun Alloh tomonidan ilohiy da’vat bo’lganligini ko’ramiz:

O’ttuz to’rt da olim bo’lub dono bo’ldum,

“Hikmat ayt”, deb Subhon aytdi, go’yo bo’ldim.

Chilton birla sharob ichib hamroh bo’ldum,

Ichu tashim haq nurig’a to’ldi do’stlar. [34-b]

Ahmad Yassaviy dastlabki misrada o’ttiz to’rt yoshda dono bo’ldum,-deya o’zining ma’naviy kamolga yetish davrini belgilaydi, olimlik va donolik bosqichi bu hayot haqiqatlarini anglagan, ma’naviy ruhiy yetuklikka erishganlik, ma’rifat nuri bilan to’yinganlik ishorasi sifatidagi holatni namoyon etadi. Shu bois “Hikmat ayt deb subhon aytdi, go’yo bo’ldim”, -deya fikr davom ettiriladi. Subhon, ya’ni pok va nuqsonlardan holi Haq Taolaga ishoradir, so’fiy shoir “hikmat ayt” buyrug’iga itoat etib, hikmat aytuvchi – insonlarga hidoyat yo’lidan nasihat qiluvchi, qalbidagi ilohiy muhabbatni kuylovchi go’yo bo’lganligini jo’shqin pafosda ifoda etadi. Keyingi misrada Chilton birla sharob ichib hamroh bo’ldim deb, ruhiy poklanish bosqichini kamoliga yetkazgan avliyolar, Haq do’stlarining ruhlari bilan birga sharob ichib, ya’ni ilohiy ishq, ma’rifat lazzatini, shavqini tuyganligini ifoda etmoqda. Demak, so’fiy shoir ulug’ avliyolar ruhiy dunyosiga kirib, ular bilan ilohiy muhabbat siridan bahramand bo’lgan. Misralardagi tasavvufiy badiiy ramzlarning mohirona qo’llanilishi hikmat mazmunini yanada boyitgan, xususan, chiltonlar obraziga to’xtaladigan bo’lsak, chil-qirq, tan-insonlarga ishora qiluvchi forscha so’zdir. Chiltonlar diniy tasavvurga ko’ra, g’ayritabiiy kuchga ega bo’lgan, afsonaviy qirq ruhni anglatadi. Ular ko’zga ko’rinmaydi, mo’zori yoki odamlar mavjud bo’lmagan joylarda uchraydi degan qarash bor. Chiltonlar obrazi folklorda ham uchraydi. Misralarda keltirilgan sharob so’zi ham ramziy ma’noga ega bo’lib, ilohiy ishq ma’nosida qo’llanilgan. So’nggi misra, “Ichu tashim Haq nurig’a to’ldi” deganda, so’fiylikning oliy muddaosi fanofilloh – Alloh bilan birlashish va o’z menining yo’qolish holatini anglatib, ilohiy borliqqa aylanganini bildiradi. Ushbu hikmatda qo’llanilgan qofiyalarning o’zaro ohangdorligi ham diqqatga sazovordir, “dono bo’ldum, go’yo bo’ldum” kabi ichki qofiyalar ramziylik va musiqiylik kasb etgan bo’lib, balog’at va fasohatga yo’g’rilgan. Ahmad Yassaviy mazkur hikmat orqali insonning ilm va irfon tufayli Haqni tanishini go’zal timsollar bilan tasvirlaydi. Ilm bilish, bilish orqali hikmatni tushunish, hikmat ila ishqni his etish va nihoyat ishq orqali Haqqa yetish va u Nur bilan birlashish bosqichlarini badiiy ifodalab, olimlikdan oriflikka o’tishlik holatini aks ettiradi.

Xulosalar. Sharq tasavvuf adabiyotida o’ziga xos o’ringa ega bo’lgan so’fiy shoir Ahmad Yassaviy ilk marta turkiy adabiyotda so’fiylik va tasavvuf bilan bog’liq tushunchalarni o’zining hikmatlari orqali olib kirdi. Komillik, ilm-ma’rifat, irfoniy g’oyalarni ijodida mohirona aks ettirdi. Xususan, g’ayb ilmi va ladun ilmi insonning botiniy idroki orqali haqiqatga yetish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligini o’z ijodida isbotladi. Yassaviy ta’limotida nafaqat zohiriy ilmlar, balki botiniy ilmlar, ruhiy poklanish, irfon va ixlos yo’lidagi solik uchun hidoyat manbayi sifatida namoyon bo’ladi. Hozirgi kunda zamonaviy insonning moddiy

jihatdan to'kis bo'lsa-da, ammo ma'naviy jihatdan ruhiy inqirozga yuz tutayotganligini inobatga olsak, Yassaviy ta'limoti, Sharq tasavvufi tafakkurining ruhiy muvozanat berishligiga naqadar ehtiyoj borligini sezish qiyin emas. Shu sababli Sharqning Ahmad Yassaviy kabi buyuk darg'alarini hamisha o'rganish, hikmatlarini tafakkur qilish, undagi axloqiy-irfoniy g'oyalar orqali ruhiy poklanish insonni ma'naviy barkamollikka yetaklaydi. Shuning uchun tasavvuf ta'limoti asrlar o'tsa-da, o'z dolzarbligini va ahamiyatini mustahkamlaydiki, ammo aslo yo'qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqahhor Shoshiy. Avliyolar kitobi. Print-Group nashriyoti. Toshkent, 2024.
2. Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. Тошкент: “Мовароуннахр”. 2004.
3. Ахмад Яссавий. Хикматлар.-Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. -Тошкент : “Фан”, 1984.
- 5.Вохидов Р., Махмудов М. Иймон-қалб гавҳари. Тошкент:“Маънавият ”. 1998.
6. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.comkutubxonasi
7. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1994.
8. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда “ Ўзбекистон ” нашриётлари, 1999.
9. Комилов Н. Тафаккур қарвонлари. Т.: Маънавият, 1999
10. Маҳмуд Асҳад Жўшон. Зикруллоҳнинг фазилатлари. Тошкент: “Сано-стандарт”. 2019.
11. Сиёев Саъдулла. Яссавийнинг сўнгги сафари. Тошкент:”Чўлпон”. 1994
12. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят. – Т.: АСН, 1991.
13. Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998.
14. Ҳаққул И. Тасаввуф сабоқлари. – Бухоро, 2000.
15. ҲаққулИ. // Хакикат йўлини тутаيدесанг...// Тасаввуф ва шеърят.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991.
16. Ҳаққул И. Тақдир ва тафаккур.- Тошкент: “Шарқ”, 2007.
17. Ҳомиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари.- Тошкент: “Шарқ”,2009.
18. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. Т., “Наврўз” нашриёти. 2018.
19. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjimai. www.ziyouz.comkutubxonasi
20. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Т., “Ҳилол” нашр. 2023.